



LISONIY ASSOTSIATSIYALARDA INSONGA XOS IJTIMOIIY SIFATLARNING AKS ETISHI

Rasulova Dilfuza Shamshidinovna

Qo'qon davlat universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18015889>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 18-dekabr 2025 yil

Nashr qilindi: 22-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

Lisoniy assotsiatsiya, yosh omili, assotsiativ tafakkur, nutqiy ong, ijtimoiy tajriba, assotsiativ maydon

ABSTRACT

Mazkur maqolada lisoniy assotsiatsiyalarda insonning ijtimoiy xususiyatlari, xususan yosh omilining til birliklari bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi tadqiq etiladi. Tadqiqot assotsiativ jarayonlarning yoshga qarab farqlanishi, bolalar, maktab o'quvchilari va talabalar nutqiy tafakkurida yuzaga keladigan assotsiativ reaksiyalarning o'ziga xos jihatlarini aniqlashga qaratilgan. Ilmiy manbalar va assotsiativ tajribalar tahlili asosida bolalarda sintagmatik assotsiatsiyalarning, ulg'ayish jarayonida esa paradigmatic va mavzuvii assotsiatsiyalarning ustunligi asoslab beriladi. Maqolada "Bolalar assotsiativ lug'ati" materiallari asosida bolalarga xos obrazli, onomatopeya xarakteridagi javob reaksiyalari tahlil qilinib, ularning bolaning ongiy va nutqiy rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, maktab o'quvchilari va talabalarning "uy" (дом) turtki so'ziga bergan assotsiatsiyalari qiyosiy-statistik usulda o'rganilib, yosh guruhlariga xos tafakkur farqlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktab o'quvchilarida aniq predmet va makon bilan bog'liq assotsiatsiyalar ustun bo'lsa, talabalarda hissiy-baholovchi va ma'naviy mazmundagi assotsiatsiyalar ko'proq uchraydi. Ushbu holat insonning ijtimoiy tajribasi, hayotiy qarashlari va bilish darajasi assotsiativ jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Lisoniy assotsiatsiyalarda inson yoshiga xos xususiyatlar ham kuzatiladi. Bu holat tilda assotsiatsiyalarning yoshga ko'ra ijtimoiylashuvini ko'rsatadi. Y.I. Nikolayeva, S.S. Belova, Y.M.Trenining fikricha, "Assotsiativ jarayonning sifatiga insonning yoshi ta'sir qiladi. Bolalarda sintagmatik assotsiatsiyalar (*chiroq* – *yonyapti*, *stul* – *o'tiribman* va h.k.) ustunlik qilishi ko'rsatilgan, bu, aftidan, ularning eslab qolingan jumlar fragmentlarini esga tushirishlari bilan

bog'liq. Keyinchalik paradigmatic assotsiatsiyalar (*лампа – қандил; стол – стул*) tobora ko'proq uchraydi, bu tilning konseptual tuzilishini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin"¹.

Bu o'rinda qaysi yoshdagi bolalarda sintagmatik va paradigmatic xarakterdagi assotsiatsiyalar ko'proq kuzatilishiga aniqlik kiritilishi lozim. A.I.Kukushkina, T.V.Zaxarova bolalar ustida assotsiativ tajriba o'tkazib, ushbu masala bo'yicha quyidagicha xulosa chiqarishgan: "...bolaning nutqiy rivojlanishi jarayonida verbal assotsiatsiyalarning xarakteri o'zgaradi. 5-6 yoshli bolalarda sintagmatik reaksiyalarning hosil bo'lishi paradigmatic reaksiyalardan ustunlik qiladi, ular bu yoshdagi bolalarda bir necha marta ko'p uchraydi. 5-6 yoshli bolalarda mavzuvii assotsiatsiyalar nisbatan ko'p yuzaga keladi. 5 yoshda mavzuvii assotsiatsiyalar hosil bo'lishiga ko'ra 2-o'rinni, 6 yoshda 3-o'rinni egallaydi va paradigmatic assotsiatsiyalarga qaraganda ko'p yuzaga keladi"².

Bolalarda hosil bo'lgan assotsiatsiyalar bolalarning ongi, tafakkur tarzini aks ettiradi. Shu jihatdan bunday lisoniy assotsiatsiyalarning bolalarga xosligini anglash qiyin bo'lmaydi. Masalan, o'zbek tilidagi "Bolalar assotsiativ lug'ati"³da *kuchuk* so'ziga berilgan vov-vov deydi 2; vov-vov qiladigan 1, vov qiladi 1, "vov qilib tishlaydi" 1, K (harf) 1, auu deydi 1, "kuchuk bo'lishni istamayman" 1, "odamlarni vov etib tishlab oladi, egasiga borib aytib beradi" 1, "bolalarni yeb tashlab, katta bo'lib ketadi" 1 javob reaksiyalarining faqat bolalarga xosligi sezilib turadi.

Ushbu lug'atda keltirilgan *qo'y* so'ziga berilgan "baa" 10; baa qiladi 5; baa deydi 3; "baa"raydi 2; "mo'o" 2; bee qiladigan 1, "odamlarning uyida yashaydi" 1, yerda "baa"rab yuradi 1, "qo'yga uy yasash kerak" 1, yerda yuradi 1, baalaydigan 1, "baa"rash 1, mee qiladi 1, "bee qilib tovush chiqaradi" 1, "bee"riydi 1, qo'yni kesishgan 1, "mani adam kesadila" qo'yni 1, "maa" et 1, mo'o" deydi 1, "mee" deydi 1⁴ javob reaksiyalari ham faqat bolalarda kuzatilishiga ko'ra xarakterlidir.

Ijtimoiy xarakterdagi assotsiatsiyalarning hosil bo'lishida insonning yoshi bilan birga, kasbi, mashg'uloti ham muhim o'rin tutadi. Bu holat bir obyekt bo'yicha turli kasb egalarida yoki o'quv mashg'ulotlari turlicha bo'lgan yoshlarda bir-biridan farq qiladigan assotsiatsiyalarning hosil bo'lishida kuzatiladi. Demak, insonda hosil bo'ladigan assotsiatsiyalar asosida uning kasbi, shug'ullanadigan mashg'uloti haqida ma'lumot olish mumkin bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasi Omsk shahri maktab o'quvchilari va talabalarning *дом* (uy) turtki so'ziga bergan eng yuqori chastotali (2 va undan ortiq takrorlangan) javob reaksiyalarini qiyoslaymiz:

Мaktab o'quvchilarining *дом* turtki so'ziga bergan javob reaksiyalari maydoni:

ДОМ – семья (138); квартира (29); уют (23); мама (15); здание (14); родина (13); жильё; тепло; отдых (12); крепость (11); жизнь (10); крыша (8); жилище; коттедж (7); компьютер (6); защита (5); близкие; большой; дверь; земля; кровать; Родина; родной; свет; хата (4); камин; кирпич; место обитания; родители; тепло; очаг (3); диван; дом; моя

¹ Николаева Е.И., Белова С.С., Тренин Е.М. Вербальная ассоциация и эмоциональное слово. –Санкт-Петербург, 2013. – С. 8.

² Кукушкина А.И., Захарова Т.В. особенности вербальных ассоциаций у детей старшего дошкольного возраста с общим недоразвитием речи //https://scienceforum.ru/2015/article/2015008073

³ Mirnosirova D. Bolalar assotsiativ lug'ati. – Toshkent: "BOOKMANY PRINT", 2022. – B.55. (– 162 b.)

⁴ Mirnosirova D. Bolalar assotsiativ lug'ati. Ko'rsatilgan lug'at. – B.85.

крепость; строитель; подвал; покой; родное место; сестра; стены; спать; телевизор; теплый (2).

Talabalar assotsiatsiyalari maydoni:

ДОМ: – семья (150); уют (37); мама (23); тепло (22); родители (13); родной (12); жилище (11); любовь (9); крепость; радость (8); дерево; кровать (7); большой; домашний; кот; огонь (6); жизнь; крыша; уютный (5); жильё; защита; красиво; родные; семейный очаг (4); вечер; квартира; красивый; кров; любящая семья (3); благополучие; диван; должен быть у каждого; дружная семья; жить; забота; крепкая; дружная; круг; лес; любимая семья; мать и отец (2) ⁵.

Qiyoslash asosida aytish mumkinki, maktab o'quvchilari va talabalarda *дом* turtki so'zi bo'yicha hosil bo'lgan 17 turdagi assotsiatsiyalarda aynanlik mavjud: семья (138 –150), квартира (29 – 3), уют (23 – 37), мама (15 – 23), жильё (12 – 4); тепло (12 –22); крепость (11 –8), жизнь (10 –5), крыша (8–5), жилище (7 –11), защита (5 – 4), кровать (4 –7), большой (4 – 6); родной (4 –12), родители (3–13), тепло (3–22), диван (2–2). Ammo ushbu javob reaksiyalarining sinaluvchilar tomonidan takrorlanishida jiddiy farqlar kuzatiladi. Masalan, 138 ta maktab o'quvchisi *дом* so'ziga nisbatan *семья* javob reaksiyasini bergan bo'lsa, bu javob reaksiyasi 150 ta talabada takrorlangan. 29 ta maktab o'quvchisida *дом* сўзига *квартира* javob reaksiyasi hosil bo'lgan, ammo talabalarining faqat 3 tasida ushbu javob reaksiyasi qaytalangan. Yoki faqat 3 ta maktab o'quvchisi *дом* so'zini *родители* (ota-ona) so'zi bilan bog'lagan bo'lsa, bu ko'rsatkich talabalarda 13 tani tashkil qilgan. 3 ta maktab o'quvchisida *дом* so'ziga nisbatan *тепло* (iliqlik) javob reaksiyasi hosil bo'lgan bo'lsa, talabalarining 22 tasida bu javob reaksiyasi takrorlangan. Aynan assotsiatsiyalardagi ushbu statistik farqlar maktab o'quvchilari va talabalarining uy bilan bog'liq tasavvurlaridagi farqlarni belgilab beradi.

Assotsiativ maydondan maktab o'quvchilarining o'zigagina xos bo'lgan quyidagi assotsiatsiyalarni ajratish mumkin: здание (14), родина (13), отдых (12), коттедж (7), компьютер (6), близкие (4), дверь (4), земля (4), Родина (4), свет (4), хата (4), камин (3), кирпич (3), место обитания (3), очаг (3), дом (2), моя крепость (2), строитель (2), подвал (2), покой (2), родное место (2), сестра (2), стены (2), спать (2), телевизор (2), теплый (2).

Talabalarga xos bo'lgan jamoaviy assotsiatsiyalarga quyidagilar mansub: жилище (11), любовь (9), радость (8), дерево (7), домашний (6), кот (6), огонь (6), уютный (5), красиво (4), родные (4), семейный очаг (4), вечер (3), квартира (3), красивый (3), кров (3), любящая семья (3), благополучие (2), должен быть у каждого (2), дружная семья (2), жить (2), забота (2), крепкая (2), дружная (2), круг (2), лес (2), любимая семья (2), мать и отец (2).

Qiyosdan ma'lum bo'ladiki, talabalarda 27 xil, maktab o'quvchilarida esa 25 turdagi javob reaksiyalari takrorlangan.

Maktab o'quvchilariga xos javob reaksiyalari ichida здание (14), коттедж (7), компьютер (6), дверь (4), хата (4), камин (3), кирпич (3), дом (2), моя крепость (2), подвал (2), стены (2), телевизор (2) kabi makon va aniq predmetlarni anglatuvchi javob reaksiyalari ustunlik qilgan.

⁵ Бутакова Л.О. Материалы к ассоциативно-семантическому словарю жителей города Омска. – Омск, “Вариант-Омск”, 2012. – 128 с.

Talabalarda esa любовь (9), радость (8), домашний (6), уютный (5), красиво (4), красивый (3), благополучие (2), забота (2), крепкая (2), дружная (2) kabi hissiy munosabat ifodalovchi, baholovchi javob reaksiyalari ko'pchilikni tashkil qilgan. Demak, maktab o'quvchilarida ko'ruv hissiga asoslangan tasavvur kuchli bo'lsa, talaba yoshlarda mantiqiy baholash ustunlik qilgan. Shu sababli ularning javob reaksiyalarida obrazli ifodalar (любящая семья (3), дружная семья (2) любимая семья (2) kuzatilgan. Maktab o'quvchilari uyni ilqlik, tinchlik, xafsizlik manbayi sifatida tasavvur qilishgan bo'lsa (уют 23, тепло 12, покой 2), talabalar o'z uyini ma'naviy qadriyatlar bilan bog'lashgan: любовь (9), радость (8), забота (2), благополучие (2).

Maktab o'quvchilari uyini oilasi, yaqinlari, onasi, opa-singillari bilan birga tasavvur qilishan. Bu семья (138), мама (15), близкие (4), родители (3), сестра (2) javob reaksiyalarida aks etgan. Talabalar ham o'z uyini oilasi, ota-onasi, yaqinlari bilan bog'lashgan: семья (150), мама (23), родители (13), родные (4), любящая семья (3), дружная семья (2), дружная (2), любимая семья (2), мать и отец (2). Farqi shundaki, talabalar oila deganda inoq, bir-birini sevuvchi, e'zozlovchi oilani ko'z oldiga keltirishgan.

Tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, maktab o'quvchilarining hayotiy tajribasi, olam haqidagi bilimlari, ongi, tafakkuri, dunyoqarashi talaba yoshlarnikidan farq qiladi. Bu holat ularda hosil bo'ladigan assotsiatsiyalarda ham kuzatiladi. Demak, inson assotsiatsiyalarining xarakteriga, hosil bo'lishiga uning ijtimoiy holati – yoshi, jinsi bilan bir qatorda, kasbi, mashg'uloti kabilar ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

INNOVATIVE
ACADEMY